

UO‘K(UDC, УДК): 821.512.133

**O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR”
ROMANIDA SHAXS MUAMMOSINING YORITILISHI⁶**

Yusupova Shodiya Kerimbayevna

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha

va maktab ta’lim vazirligi huzuridagi

ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari

agentligi tizimidagi Olmazor tuman ixtisoslashtirilgan

maktabi IELTS fakultativ mashg‘ulot o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

Email: shodiyayusupova1994@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-7600-0551

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani siyosiy-tarixiy hamda adabiy-estetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda asarda aks etgan sovet-afg‘on urushi, qayta qurish davridagi siyosiy inqiroz va SSSR tanazzulining inson hayotiga ko‘rsatgan ta’siri badiiy obrazlar orqali yoritiladi. Roman qahramonlari – Rustam Shomatov, Komissar Soat G‘aniyev, Rustamning otasi hamda Qurbonoy xola obrazlari orqali totalitar tuzum va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlar ochib beriladi. Maqolada Rustam obrazi urushning begunoh qurboni sifatida talqin qilinib, uning taqdiri orqali sovet-afg‘on urushining ma’nosizligi, inson ruhiyatiga yetkazgan jarohatlari va urushdan keyingi fojeali oqibatlari tahlil qilinadi. Komissar G‘aniyev obrazi esa sovet mafkurasi shakllantirgan shaxs timsoli sifatida ko‘rsatilib, siyosiy tizimning inson ongiga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, romanda qatag‘on siyosati, “paxta ishi” jarayoni hamda oddiy insonlarning ijtimoiy hayotdagi fojeali taqdiri badiiy talqin asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda adabiyotshunoslik nazariyasi hamda sovet-afg‘on urushi va SSSR inqiroziga oid ilmiy manbalardan foydalanilib, romanning tarixiy konteksti bilan badiiy talqini o‘zaro uyg‘unlikda tahlil etiladi. Natijada, “Tushda kechgan umrlar” romani nafaqat urush fojeasini, balki totalitar tizim sharoitida inson taqdiri va jamiyatning ma’naviy inqirozini yorituvchi muhim badiiy asar ekani asoslab beriladi.

KALIT SO‘ZLAR

Afg‘on urushi, SSSR tanazzuli, qayta qurish, qatag‘on, siyosat va shaxs, urushning bema’niligi, totalitar tuzum, o‘zbek adabiyoti.

Received: February 30, 2026

Accepted: March 10, 2026

Available online: May 10, 2026

⁶ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Yusupova Sh. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida shaxs muammosining yoritilishi.

// Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 55-67.

THE PORTRAYAL OF THE INDIVIDUAL IN O‘TKIR HOSHIMOV’S NOVEL “LIVES LIVED IN A DREAM”

Yusupova Shodiya Kerimboevna

Teacher of IELTS Elective Courses,
Almazar District Specialized School under
the Agency for Specialized Educational
Institutions at the Ministry of
Preschool and School Education of the
Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

Email: shodiyayusupova1994@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-7600-0551

ABSTRACT

This article analyzes O‘tkir Hoshimov’s novel “Lives Lived in a Dream” from political-historical and literary-aesthetic perspectives. The research illuminates the impact of the Soviet-Afghan War, the political crisis of the perestroika period, and the collapse of the USSR on human life as reflected in the work’s literary characters. The complex relationship between the totalitarian regime and the individual is revealed through the novel’s characters: Rustam Shomatov, Commissar Soat G‘aniyev, Rustam’s father, and Qurbonoy xola. The article interprets the character of Rustam as an innocent victim of the war, and through his fate, it analyzes the senselessness of the Soviet-Afghan War, the psychological trauma it inflicted, and its tragic aftermath. The character of Commissar G‘aniyev is presented as an embodiment of the individual shaped by Soviet ideology, revealing the influence of the political system on human consciousness. Additionally, the policy of repression, the “Cotton Case,” and the tragic destinies of ordinary people in society are examined through the novel’s artistic interpretation. The research utilizes literary theory and scholarly sources on the Soviet-Afghan War and the collapse of the USSR, analyzing the novel’s artistic interpretation in harmony with its historical context. Ultimately, the article substantiates that “Lives Lived in a Dream” is a significant literary work that not only portrays the tragedy of war but also illuminates the fate of the individual and the spiritual crisis of society under a totalitarian system.

KEYWORDS

Afghan War, collapse of the USSR, perestroika, repression, politics and the individual, senselessness of war, totalitarian system, Uzbek literature.

ОСВЕЩЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИЧНОСТИ В РОМАНЕ

УТКИРА ХАШИМОВА «ЖИЗНИ, ПРОЖИТЫЕ ВО СНЕ»

Юсупова Шодия Керимбаевна

преподаватель факультативных занятий по IELTS
специализированной школы Алмазарского района,
входящей в систему Агентства
по специализированным образовательным учреждениям
при Министерстве дошкольного и
школьного образования Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан

Э-почта: shodiyayusupova1994@gmail.com

ORCID ID: 0009-0006-7600-0551

АННОТАЦИЯ

В данной статье с политико-исторической и литературно-эстетической точек зрения анализируется роман Уткира Хашимова «Жизни, прожитые во сне». В исследовании посредством художественных образов выявляется влияние советско-афганской войны, политического кризиса периода перестройки и распада СССР на человеческую жизнь. Через образы героев романа – Рустама Шоматова, комиссара Саата Ганиева, отца Рустама и тёти Курбаной – раскрываются сложные взаимоотношения между тоталитарным режимом и личностью. В статье образ Рустама трактуется как образ невинной жертвы войны, через судьбу которой анализируются бессмысленность советско-афганской войны, нанесённые ею душевные травмы и ее трагические последствия. Образ комиссара Ганиева в романе показан как воплощение качеств личности, сформированной советской идеологией, что способствует раскрытию влияния политической системы на сознание человека. Также в работе рассматривается художественная интерпретация в произведении репрессивной политики, процессов по “хлопковому делу” и трагических судеб простых людей, связанных с обстоятельствами общественной жизни. В исследовании используются теория литературоведения и научные источники, посвящённые советско-афганской войне и кризису СССР, при этом художественная трактовка фактов в романе анализируется в гармоничном сочетании с историческим контекстом. В результате обосновывается, что роман «Жизни, прожитые во сне» является важным художественным произведением, освещающим не только трагедию войны, но и судьбу человека и духовный кризис общества в условиях тоталитарной системы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Афганская война, распад СССР, перестройка, репрессии, политика и личность, бессмысленность войны, тоталитарный режим, узбекская литература.

KIRISH

O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani o‘zbek adabiyotida siyosiy voqelikning badiiy in’ikosiga doir eng yirik asarlardan biridir. 1991-1992-yillarda yozilgan va 1994-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida e’lon qilingan bu roman uchta ulkan tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Bular 1930-yillar “Qatag‘on” repressiyalari, 1979-1989-yillar sovet-afg‘on urushi va “o‘zbek ishi – paxta ishi” siyosiy jarayoni – yagona badiiy makonda birlashtiriladi. Bu uch voqea o‘zaro uzviy bog‘liq: ularning barchasi Sovet tuzumining mustamlakachilik tabiatidan kelib chiqadi va bir-birini sabab-oqibat zanjiri sifatida ulanib boradi.

Roman yozilgan davr SSSR tanazzulidan keyin darhol, Mustaqillik dastlabki yillari o‘ziga xos “hisob-kitob” vaqti edi. Hoshimov bu asarda nafaqat shaxsiy tragediyalarni, balki bir avlodning umri tarixiy majburiyat ostida qanday “tushda” – bema’nilikda – o‘tganini ko‘rsatadi. Asar so‘zboshida esa muharrirning o‘zi shunday yozadi: “*O‘zbek xalqining inqilobdan boshlab Mustaqillikkacha bo‘lgan hayoti dahshatli tush edi*”(Asror Samad, 2017, 17). Bu ta’rif romanning tarixiy-siyosiy falsafasini mukammal ifodalaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi – romandagi asosiy qahramonlar orqali sovet-afg‘on urushining bema’niligi, qayta qurish davri siyosiy inqirozi va SSSR tanazzulining ichki sabablari qanday ifodalanganini adabiy tahlil va tarixiy kontekstni uyg‘unlashtirgan holda o‘rganishdan iborat.

Sovet-afg‘on urushi (1979-1989) tarix sahifasida eng katta geosiyosiy xato sifatida qoldi. 1979-yil dekabrda Brejnev doktrinasiga amal qilib bosib kirgan sovet qo‘shinlari o‘z hisob-kitoblariga ko‘ra bir yil ichida chiqib ketishi kerak edi – ammo ular o‘n yil botqoqda qolib ketdi. Bu urushda taxminan 15 000 sovet askari halok bo‘ldi, 37 000 dan ortiq yarador bo‘ldi; afg‘on tomonida esa bir milliondan ziyod tinch aholi qurbon bo‘ldi.

Xalqaro tadqiqotchilar urushning SSSR tanazzulidagi rolini keng o‘rgangan. “*Afg‘onistondagi mag‘lubiyat anti-qayta qurish kuchlarini zaiflashtirib, islohotlarni tezlashtirdi va tizimning qulashiga zamin hozirladi*” (Çiçek, 2015, 1). Afg‘onistonda olib borilgan harbiy harakatlar sovet iqtisodiga, ijtimoiy tuzilmasiga va xalqaro obro‘sigacha katta zarba bo‘ldi, natijada glasnost va qayta qurish nafaqat islohotni, balki tizimning o‘z-o‘zini fosh etishini ham boshlab berdi.

Xuddi ana shu tarixiy jarayon urush, qayta qurish va siyosiy tanazzul, O‘tkir Hoshimov romanining asosiy siyosiy manbayi sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi bu ulkan tarixni statistika va sanalar orqali emas, balki konkret insonlar Rustam, uning otasi, Komissar va Qurbonoy xolaning taqdirleri orqali ifodalaydi. Bu esa, o‘z navbatida asarning markaziy ziddiyati sifatida namoyon bo‘lib, “*badiiy konflikt qahramonlarning ichki kechinmalari va dunyoqarash to‘qnashuvida namoyon*

bo'ladi" (Prozorov V.V., Yelina Ye.G., 2012, 85) – aynan mana shu metodologiya Hoshimov asarining kuchini belgilaydi.

Roman bosh qahramoni Rustam o'sha davr o'zbek yoshlarining umumlashma obrazidir. U o'qishining birinchi kursida o'qiyotgan talaba bo'lib, armiyaga chaqiriladi va Afg'onistonga yuboriladi. Asarning eng muhim siyosiy nuqtasi shundaki: Rustam Afg'onistonga o'z xohishi bilan bormaydi. U "*Vatani va xalqi uchun emas, sovet hukumatining bosqinchilikdan iborat siyosiy manfaati uchun jang qiladi*" (Hoshimov O., 2017, 14). Bu holat urushning bema'niligini eng teran ifodalaydi – jangchi o'zi nima uchun jang qilayotganini bilmaydi.

Voqealar rivoji Rustam kundaliklarida yozib boriladi, bu asarning poliperspektiv kompozitsiyasidagi asosiy roviydir. Uning harfiy izohlari urushning rasmiylashtirilgan propagandasiga zid bo'lgan haqiqatni yozib qoldiradi. Shoir va afg'on urushi qatnashchisi Qo'chqor Norqobil romanni o'qib, Hoshimovga maktub yozgan: "*Siz urushda bo'lmagansiz, lekin inson ruhiyatining ozorini urush orqali haqqoniy kuch bilan tasvirlab berganingizdan xursandman*" (Asror Samad, 2017, 15). Bu guvohlik yozuvchining urushni tashqaridan emas, balki inson ruhiyati orqali tasvirlaganini ko'rsatadi.

Afg'onistonda Rustam bir nechta muhim siyosiy haqiqatga duch keladi. Do'sti Hayriddin uning o'rniga halok bo'ladi – bu "vatanparvarlik burchi" deb ulug'langan urushda shaxsiy qurbonlikning qanchalik bema'ni ekanligini ko'rsatadi. Rustam bu vijdon azobini hech kimga aytmaydi, lekin u undan umrining oxirigacha qutula olmaydi. Uning urushda ko'rgan kechirganlari haqida "*frontdagi askarlar tajribasini jasorat emas, fojia va ruhiy vayronlik shaklida*" namoyon etdi (Qosimov, Xolmatov, 2025, 1). Rustamning urushdan keyingi hayoti buning yorqin dalilidir: "urush natijasida u kasallik chalindi", uyga qaytgach ham tinchlik topol olmadi, oxir-oqibat fojiali ravishda hayotdan ko'z yumdi.

Rustamning taqdirida siyosiy ma'no alohida kuchga ega: u afg'on urushida o'z tanasini, ruhiyatini, kelajagini sarfladi, lekin buning evaziga hech narsa olmadi. Urushdan qaytib esa "paxta ishi" bo'yicha nohaq qamalgan otasini ko'rdi. Bu ikki zo'ravonlik urush va siyosiy repressiya o'rtasidagi aloqa Sovet tizimining tizimli tabiatini ko'rsatadi: u har bir yo'nalishda insonni "tegirmon toshi"ga aylantiradi.

Rustam urushdan qaytgan 1988-1989 – yillar aynan Gorbachevning oshkoralik va qayta qurish siyosati avj olgan davrga to'g'ri keladi. Manbalarga yozilganidek oshkoralik davri "*butun sovet apparat tanqidi uchun suv toshqiniga aylandi*" va fuqarolar ilgari bilib bo'lmaydigan haqiqatlarni o'qiy boshladilar (Britannica, 2024). Rustam ham aynan shu qayta qurish muhitida ota-onasining haqiqiy taqdirini, otasining "paxta ishi" sabab nohaq qamalganini bilib oladi.

Qiziq paradoks shundaki, qayta qurish davri Rustamni “uyg‘otdi”, ammo endi juda kech edi. Otasining maktubida yozilgan so‘zlar romanning falsafiy yadrosi sifatida namoyon bo‘ladi:

“*Go‘yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u tush ko‘rib yuraverganman: Goh shirin, goh xatarli tush ko‘rib. O‘sha “birov” qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa, quloq qoqmay bajaraverganman... Uyg‘onishga esa qo‘rqanman... Mana endi, uyg‘onib, yonverimga qarasam menga o‘xshaganlar ko‘p ekan...*” (Hoshimov O‘., 1994, 120). Bu parcha romanning eng chuqur siyosiy mazmunini aniq ifodalaydi, Sovet tuzumi barcha fuqarolarini “*uyqu dorisi bilan*” ya‘ni, mafkura, propaganda va zo‘ravonlik bilan “*tush*” ichida ushlab turardi. Uyg‘onish esa qayta qurish davri bilan keldi, lekin u vaqtda allaqachon ko‘p narsa vaqti soati o‘tib ketgan edi.

Roman ikkinchi yirik qahramoni Komissar Soat G‘aniyev esa, Sovet tuzumining eng dahshatli timsolidir. U bolaligidan dinga, o‘z millatiga nafrat bilan tarbiyalangan, sovuqqonligi, mansabparastligi va o‘z manfaati uchun eng jirkanch ishlarga ham tayyor bo‘lgan personaj. Lekin Komissar tuzumning qurboni emas balki, tuzumning muvaffaqiyatli mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Komissar obrazida O‘.Hoshimov siyosiy tizimning eng kuchli qurolini ko‘rsatadi, ya‘ni shaxsni qayta tarbiyalash, uning ongini boshqarish. Otasining izidan borib, sovet komissari bo‘lib yetishgan G‘aniyev yoshligidan ko‘plab odamlarning nohaq jazolanishiga sabab bo‘lgan, ayollarning nomusi bilan o‘ynagan, qatag‘on siyosatini jonbozlik bilan amalga oshirgan. U 70 yillik zulm saltanatining timsoli sifatida asarda tasvirlanadi.

Keyinroq esa Komissar “*Biz haqni topishimiz kerak, sen his-tuyg‘ularga berilib ketma!*” deb tergov qiladi (Usmonxojayeva, Z. A., 2025, 73). Bu ibora sovet tuzumining o‘ziga xos tilini “haq” va “his-tuyg‘u” o‘rtasidagi soxta ziddiyatni – mukammal aks ettiradi, tizim uchun haq – mafkura, his-tuyg‘u esa zaiflik sifatida ishlagan.

Komissar orqali Hoshimov “siyosat va shaxs” masalasining eng murakkab qatlamini ochadi. Bir tomondan, G‘aniyev shaxsan aybdor – u ongli ravishda zulm qilgan. Boshqa tomondan, uni ana shunday qilib tarbiyalagan tizim aybdor. Bu ikki aybdorlikning uyg‘unlashishi romanning eng chuqur falsafiy savoliga olib keladi: qayerda shaxsiy mas‘uliyat tugaydi va qayerda tuzimning zaruriy bosimi boshlanadi?

Hoshimov bu savolga bir tomonlama javob bermaydi. Komissar hayotining oxirida ham afsuslanmaydi: “*U o‘tgan umridan afsuslanmaydi. Dunyoqarashini o‘zgartirmaydi*” (Hoshimov O‘., 2017, 176). Bu holat tizimning shaxsni qanchalik to‘liq o‘z qolipiga solishi mumkinligini ko‘rsatadi. Xalizevning ta‘rifida “*qahramonning xarakter va xatti-harakatlari uning ijtimoiy muhiti va tarixiy*

sharoiti bilan chambarchas bog‘liq” (Xalizev V.E., 2002, 251) – G‘aniyev aynan shu qoidaning eng dahshatli ifodasidir.

Komissarning farzandlari bo‘lmish Mels va Mauzer (ismlarining o‘zi mafkuraviy dasturlashtirishning ramzidir: “Marks-Engels-Lenin-Stalin” va qurol nomi) otasini tark etadi. Bu ketish tizimning keyingi avlod tomonidan rad etilishini anglatadi, qayta qurish davri shu “*ketishni*” timsollab ifoda qiladi. Ammo ular otadan nima sababdan ketgani masalasi ham oson javob talab qilmaydi: vijdon sabablidanmi yoki shunchaki qulay sharoitlarda otadan qutulib qolishdanmi?

Komissar orqali O‘.Hoshimov SSSR tanazzulining muhim bir sababini badiiy tarzda ifodalaydi-ki, tizim o‘zidan shu qadar uzilgan loyqa kadrlar yaratdiki, ular endi tizimni ham saqlab qola olmasdi. “*Hamma narsa chiryapti. Buni o‘zgartirish kerak*” – Shevardnadze 1984-yilda Gorbachevga shunday degan edi (Britannica, 2024). Sovet ma‘muriyatining barcha qatlamlarida “G‘aniyev”lar ko‘paygan edi, va aynan ular tizimni ichdan yemirdi.

“*Afg‘onistondagi urush sovet rahbarlarining milliy harakatlarni qo‘shin kuchi bilan bostirish samaradorligi haqidagi qarashlari-ni o‘zgartirdi*” (Prakash, Reuveny, 1999, 43). Aynan shu o‘zgarish qayta qurishga yo‘l ochdi. G‘aniyev esa bu o‘zgarishni hech qachon anglamadi, u tizimga shunchalik singib ketganki, tizimdan tashqarida o‘ylash qobiliyatini yo‘qotgan.

Rustanning otasi esa, 1930-yillar qatag‘onining bilvosita qurboni, 1980-yillar “paxta ishi”ning esa bevosita qurboni. “Paxta ishi” Sovet Ittifoqida 1983-1988-yillarda amalga oshirilgan siyosiy tergov jarayoni bo‘lib, o‘zbek rahbarlariga paxta yetishtirish bo‘yicha hisobotlarni soxtalashtirganligi ayblandi va yuzlab odamlar qamoqqa olindi. Aslida bu jarayon ko‘p jihatdan siyosiy hisob-kitob va Markaziy Osiyoning sobiq mustamlaka imperiyasiga bo‘ysundirib turilishining vositasi edi.

Rustam otasining nohaq qamalganini bilib, urushdan qaytishga qaror qiladi. Bu qaror roman syujetidagi eng muhim siyosiy harakatdir sifatida, urush va qatag‘on bir zanjirning ikki bo‘g‘ini ikkalasi ham tizimning shaxsga ko‘rsatgan zo‘ravonligi namoyon bo‘ladi. Rustam Afg‘onistonda “dushman” askarni o‘ldirsa, bu “milliy burch” deyiladi; otasi esa o‘z yurtida tinch fuqaro sifatida “paxta ishi” uchun qamaladi. Bu ikki ziddiyat o‘rtasidagi nomutanosiblik tizimning ikki yuzi tashqi va ichki zo‘ravonlik ekanligini ko‘rsatadi.

Qurbonoy xola obrazi romandagi eng og‘riqli obrazdir. U umrini “*nimaga sarflaganini bilmaydi, sog‘ligi yomonlashib ishga yaramay qolsa ham har kungi yumushlarini qo‘ymaydi*” (Hoshimov O‘., 2017, 56). U tizimning faol qurbon qilgan odami emas, u tizim tomonidan “unutilgan”, ko‘rib turilmagan kishidir.

Qurbonoy xola obrazi orqali O‘tkir Hoshimov sovet tizimi ostida o‘tgan “oddiy” hayotning qanchalik “tushdagidek” bema‘nilik va boqimandalikda o‘tganini ko‘rsatadi. U na qatag‘on qilindi, na urushga bordi, balki shunchaki

yashadi va yashayverdi, tizim esa uni hech qachon ko‘rmadi. Bu ko‘rinmaslik o‘z-o‘zicha eng katta siyosiy ko‘rinishdir. Hukumat nafaqat zo‘ravonlik bilan, balki insonlarni ahamiyatsiz, keraksiz obyektlarga aylantirib ham ezishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Romanning sarlavhasi “Tushda kechgan umrlar” O‘. Hoshimovning urush va siyosatga bo‘lgan yagona falsafiy munosabatini mujassamlashtiradi. Romanning nomlanishiga ikki xil qarash bilan tahlil qilish mumkin. Birinchidan “qahramonlarning shodon hayoti, orzularga to‘la kelajagi, baxtli hayot haqidagi umidlari tushdek sarobga aylanganligi sababli” bo‘lsa, ikkinchidan esa – “qahramonlarga har bir muhim voqealar, o‘zlarini kutib turgan taqdir tushlarida namoyon bo‘lishi sababli” ham umrlar xuddi tushdagidek o‘tgan edi. Ikkala talqin ham, real hayot “tush”ning o‘ziga o‘xshash boshqalar tomonidan boshqariladigan, o‘zgartirib bo‘lmaydigan, uyg‘onganda esa faqat iztirob qoldiradigan bir jarayon sifatida ekanligi haqidagi xulosaga olib keladi.

Said Ahmad romanga bergan bahosi bu falsafani yana bir bor ta’kidlaydi: *“Xalq boshiga kulfatdan boshqa narsa solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg‘ish yog‘diradi”* gan asar deb ta’rif beradi. Bu *“telba urushqoqlar”* kim? Hoshimov aniq ism bermaydi – ammo roman kontekstida bu Brejnev, uning Politbyurosi, va ularning amri bilan yashovchi ish ko‘ruvchi butun bir hukumat tizimidir.

Urushning bema’niligi romanda ko‘p qatlamda ifodalanadi. Birinchi harbiy qatlamda sovet qo‘shinlari o‘n yil davomida o‘n minglab askarini yo‘qotdi, ammo strategik maqsadga erisha olmadi. Iqtisodiy zarba ham ulkan bo‘ladi, urush sovet iqtisodiga, ijtimoiy tuzilmasiga va xalqaro obro‘sigacha katta zarba bo‘ldi, Rustam ana shu harbiy va iqtisodiy mag‘lubiyatning jonli guvohi sifatida hamda urushning barcha zarbalarini o‘z tanasi va ruhiyatida kechirganlarning timsolidir.

Ikkinchi mafkuraviy qatlam esa, sovet ommaviy axborot vositalari urushni “xalqaro burch” deb ko‘rsatdi. “1979-yildan 1986-yilgacha urush “xalqaro burch” (интернациональный долг) va “yaxshi qo‘shnichilik” sifatida tasvirlandi. Rasmiy jihatdan, Afg‘onistondagi urush mavjud emas edi” (Çiçek, 2015, 4). Rustamning kundaliklarida esa bu yolg‘onning ichki rad etilishida ko‘rinadi, u o‘zi ko‘rgan haqiqatni yozadi, ammo bu haqiqatni hech kim eshitmaydi.

Uchinchi shaxsiy-axloqiy qatlam esa, Rustam afg‘on tinch aholisining o‘lganiga guvoh bo‘ladi, do‘stini yo‘qotadi, o‘zi ham kasallanadi. Bu barcha yo‘qotishlar nima uchun? U bu savolga javob topa olmaydi va aynan shu javobsizlik urushning bema’niligining eng jimjit ammo shafqatsiz ifodasidir. *“O‘zbekiston shunchalik aynib ketgan ekan, markazga tola o‘rniga vagonda havo, samolyotda diplomatda pul borgan ekan, nega u yoqdagilar indamabdi?”* (Hoshimov O‘., 1994, 59).

Bu satrda Rustamning hisob-kitob soʻzlari, urushdan qaytgan kishining koʻzi bilan koʻrgan tizimning umumiy manzarasi aks etadi. *“Tola oʻrniga havo borgan”* bu boshqacha aytganda, sovet iqtisodiy tizimining toʻliq barbodligini anglatadi. Qayta qurish shu barbodlikni ochiqlab koʻrsatdi hamda tizim oʻz-oʻzini yoʻq qilish jarayonini boshlaydi.

Urush adabiyotida Oʻ. Hoshimovning oʻrnini aniqlash uchun Xeminguey paralleli muhim. Qoʻchqor Norqobil oʻzining maktubida: *«“Tushda kechgan umrlar” oʻzbek romanchiligida ogʻir yukni yelkalab maydonga chiqdi. Ulugʻ Xeminguey asarlaridagi kabi urush oralab inson yuragiga yoʻl oldi»* deb yozgan (Qoʻchqor Norqobil, 1994, 15). Bu taqqoslash muallifning urushni siyosiy va harbiy tahlil orqali emas, balki inson qalbi orqali tasvirlangani uchun amalga oshirilgan.


Biroq Oʻtkir Hoshimovning ovozi Xemingueynikidan farqli. Xeminguey urushni umuminsoniy fojia sifatida koʻrsatsa, Hoshimov uni muayyan siyosiy tizimning sovet imperiyasining qoʻli bilan amalga oshirilgan zulm sifatida tasvirlaydi. Bu farq milliy va universal aspektlarning uygʻunlashuvida namoyon boʻladi. Rustamning taqdiri oʻzbek xalqining va bir vaqtning oʻzida har qanday davrdagi har qanday tuzum qurbonlarining taqdiri ekanligi asar soʻngida tushuniladi.

Romanning eng doimiy savoli sifatida siyosiy tizim va shaxs oʻrtasidagi munosabatda namoyon boʻladi. Kim kimni yaratadi va kim kimga javobgar? Yozuvchi bu savolga oldindan tayyor javob bilan kelmaydi, balki romanning badiiy boyligini ana shu noaniqlik tashkil etadi.

Bir tomondan, Komissar Gʻaniyev tizim yaratgan, tizimga sodiq qolgan va uning barcha jinoyatlarini oʻz qoʻli bilan amalga oshirgan shaxs. Boshqa tomondan, Rustam tizim tomonidan ishlatilgan, ammo ichida hech qachon unga toʻliq boʻysunmagan shaxs. Va uchinchi tomondan, Rustamning otasi tizim tomonidan tamoman sadaqa sifatida tashlangan shaxs.

Ushbu uch model orqali Hoshimov totalitar tuzumning inson bilan munosabatining uch turini koʻrsatadi:

1-jadval:



E.V.Xalizev adabiyotda shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatning badiiy talqini haqida shunday yozadi: *“Qahramon o'z davri jamiyati va tarixiy sharoitining mahsuli sifatida ko'rinadi, ammo ayni vaqtda o'ziga xos individuallikka ega mustaqil kuch bo'lib qoladi”* (Хализев V.E., 2002, 251). O'tkir Hoshimov aynan ana shu ziddiyatni tizimning shaxsni o'z qolipiga solishga urinishi bilan shaxsning o'z individualligini saqlab qolish harakati o'rtasidagi kurashini romanning asosiy siyosiy dilemmasi sifatida taqdim etadi.

Romanning eng kuchli siyosiy xulosasi *“Uyg'onishga qo'rqqan”* avlodning nihoyat qayta qurish davrida ko'zini ochishi va *“menga o'xshaganlar ko'p ekan”* deb payqashi. Bu *“uyg'onish”* tizimning inqirozini ham izohlab keladi, tizim shu qadar ko'p insonga *“uyqu dorisi”* ichirganki, ular uyg'onganda birdan yolg'on ustida qurilgan butun bir imperiyani hamda o'sha imperiyani qurish va maqtash uchun sarflangan umrlarni ko'radilar.

XULOSA

O'tkir Hoshimovning *“Tushda kechgan umrlar”* romani sovet-afg'on urushi, qayta qurish davri va SSSR tanazzulining insoniy, siyosiy va axloqiy oqibatlarini bir avlodning taqdiri orqali ifodalagan nodir asardir. Tahlilimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, romandagi qahramonlar tizimi orqali Rustam (urushning begunoh qurboni), G'aniyev (tizimning aktiv mahsuli), ota (tizimning *“ko'zga ko'rinmaydigan”* qurboni) va Qurbonoy xola (unutilgan hayot) kabilarda sovet imperiyasining insonlarga ko'rsatgan zo'ravonligining to'rtta turli modelini ochib beradi.

Ikkinchidan, roman afg'on urushini nafaqat harbiy fojea, balki tizimiy axloqiy inqirozning badiiy ifodasi sifatida ko'rsatadi. Urushning bema'niligi faqat Rustamning shaxsiy hayotida emas, balki butun bir imperiyaning tanazzulida namoyon bo'ladi. Muallif bu makro haqiqatni mikro hayot asosida Rustam, uning otasi, Qurbonoy xola obrazlari orqali ifodalaydi.

Uchinchidan, *“Tushda kechgan umrlar”* sarlavhasi romanning asosiy siyosiy haqiqatini mujassamlashtiradi: Sovet tuzumi fuqarolarini *“mafkura uyqusi”*da ushlab turdi va qayta qurish bu uyquni buzdi, ammo uyg'onish vaqti o'tib ketgan, ko'p narsa yo'qolib bo'lgan edi.

To'rtinchidan, yozuvchi *“siyosat va shaxs”* munosabatini bir tomonlama hal qilmaydi. U shaxsning tizim oldida ham qurbon, ham mas'uliyatli subyekt bo'la olishini ko'rsatadi. Rustam va G'aniyev bir tizimning ikki turli javobini ifodalaydi, biri sindirilsa, ikkinchisi singib ketadi.

Nihoyat, *“Tushda kechgan umrlar”* bu shunchaki tarixiy-badiiy roman emas. U barcha davrdagi barcha totalitar tuzumlar haqida umumiy ovoz sifatida, urush

boshlaganda, tizim shaxsdan birinchi galda uning o'z taqdirini belgilash huquqini tartib olishini ifoda etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar: roman / O'. Hoshimov; mas'ul muharrir A. Samad. – Toshkent: MERIYUS, 2017. – 288 b.
2. Хализев В. Е. Теория литературы: учебник / В. Е. Хализев. – М.: Высшая школа, 2002. – 437 с.
3. Прозоров В. В. Введение в литературоведение / В. В. Прозоров, Е. Г. Елина. – М.: Флинта: Наука, 2012. – 224 с.
4. Дарвин М. Н. Теория литературных жанров / М. Н. Дарвин, Д. М. Магомедова. – М.: Академия, 2012. – 384 с.
5. Аминева В. Р. Теория литературы: учебное пособие / В. Р. Аминева. – Казань: Казанский университет, 2011. – 342 с.
6. Поэтика литературы: учебное пособие / под ред. А. Б. Темирболат. – Алматы: КазНУ, 2012. – 310 с.
7. Çiçek A. The Quicksand of Afghanistan: The Impact of the Afghanistan War on the Breakup of the Soviet Union / A. Çiçek // IJORS: International Journal of Russian Studies. – 2015. – Issue 4/2. – URL: https://www.ijors.net/issue4_2_2015/articles/cicek.html (дата обращения: 09.04.2026).
8. Prakash A., Reuveny R. The Afghanistan war and the breakdown of the Soviet Union / A. Prakash, R. Reuveny // Review of International Studies. – 1999. – Vol. 25. – P. 693-708. – URL: <https://faculty.washington.edu/aseem/afganwar.pdf> (дата обращения: 09.04.2026).
9. Nomazova E. The Role of Soviet Invasion of Afghanistan in the Breakdown of the USSR / E. Nomazova, F. O. Prichard // Undergraduate Research Posters. – 2015. – Poster 180. – URL: <https://scholarscompass.vcu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1188&context=ureposters> (дата обращения: 09.04.2026).
10. Qosimov A., Xolmatov O. O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» va Remarkning «G'arbiy frontda o'zgarish yo'q» asarlarining mushtarakligi // Modern Science and Research. – 2025. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/138668> (дата обращения: 09.04.2026).
11. Orazbaeva A. O'tkir Hoshimov ijodida o'ziga xoslik // Modern Science and Research. – 2024. – № 12. – В. 690-692.

12. Tillayev Murod. O‘tkir Hoshimov saboqlari. – Toshkent: “DAVRPRESS”. – 2009. B. 47.
13. Sotsiolingvistik tahlil: O‘tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» asari // International journal of science and technology. – 2025. – B. 72-73. – URL: <https://www.researchgate.net/publication/390476636> (дата обращения: 09.04.2026). **Usmonxojayeva, Z. A.** O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asari sotsiolingvistik tahlili // International Journal of Science and Technology. – 2025. – Vol. 2, Issue 4. – B. 72–73. – DOI: 10.70728/tech.v2.i04.026
14. Britannica. Why Did the Soviet Union Collapse? [Электронный ресурс]. – URL: <https://www.britannica.com/story/why-did-the-soviet-union-collapse> (дата обращения: 09.04.2026).
15. History.com. Why the Soviet Union Invaded Afghanistan [Электронный ресурс]. – URL: <https://www.history.com/articles/1979-soviet-invasion-afghanistan> (дата обращения: 09.04.2026).

REFERENCES

1. Hoshimov, O‘. (2017). “Tushda kechgan umrlar”. Toshkent: MERIYUS.
2. Хализев, В. Е. (2002). “Теория литературы”. Москва: Высшая школа.
3. Прозоров, В. В., & Елина, Е. Г. (2012). “Введение в литературоведение”. Москва: Флинта; Наука.
4. Дарвин, М. Н., & Магомедова, Д. М. (2012). “Теория литературных жанров”. Москва: Академия.
5. Аминева, В. Р. (2011). “Теория литературы”. Казань: Казанский университет.
6. Темирболат, А. Б. (Ed.). (2012). “Поэтика литературы”. Алматы: КазНУ.
7. Çiçek, A. (2015). “The quicksand of Afghanistan: The impact of the Afghanistan war on the breakup of the Soviet Union”. International Journal of Russian Studies, 4(2). https://www.ijors.net/issue4_2_2015/articles/cicek.html
8. Prakash, A., & Reuveny, R. (1999). “The Afghanistan war and the breakdown of the Soviet Union”. Review of International Studies, 25, 693–708. <https://faculty.washington.edu/aseem/afganwar.pdf>
9. Nomazova, E., & Prichard, F. O. (2015). “The role of Soviet invasion of Afghanistan in the breakdown of the USSR”. Undergraduate Research Posters, Poster 180. <https://scholarscompass.vcu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1188&context=urposters>

10. Qosimov, A., & Xolmatov, O. (2025). "O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» va Remarkning «G'arbiy frontda o'zgarish yo'q» asarlarining mushtarakligi". *Modern Science and Research*. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/138668>
11. Orazbaeva, A. (2024). "O'tkir Hoshimov ijodida o'ziga xoslik". *Modern Science and Research*, (12), 690–692.
12. Usmonxojayeva, Z. A. (2025). "O'tkir Hoshimovning 'Tushda kechgan umrlar' asari sotsiolingvistik tahlili". *International Journal of Science and Technology*, 2(4), 72–73. <https://doi.org/10.70728/tech.v2.i04.026>
13. Encyclopaedia Britannica. (n.d.). "Why did the Soviet Union collapse?" <https://www.britannica.com/story/why-did-the-soviet-union-collapse>
14. History.com Editors. (n.d.). "Why the Soviet Union invaded Afghanistan". *History.com*. <https://www.history.com/articles/1979-soviet-invasion-afghanistan>